



ЎЗМУ ХАБАРЛАРИ

ВЕСТНИК НУУЗ

АСТА НУУЗ

МИРЗО УЛУГБЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ
УНИВЕРСИТЕТИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ
1997
ЙИЛДАН
ЧИҚА
БОШЛАГАН

2022
1/6

Ижтимоий-
гуманитар
фанлар
туркуми

Бош мухаррир:

И.У.МАЖИДОВ – т.ф.д., профессор.

Бош мухаррир ўринбосари:

Р.Х.ШИРИНОВА – ф.ф.д., профессор

Таҳрир ҳайъати:

Сагдулаев А.С. – т.ф.д., проф.

Аширов А.А. – т.ф.д., проф.

Баллиева Р. – т.ф.д., проф.

Маликов А.М. – т.ф.д., проф.

Юсупова Д.Ю. – т.ф.д., проф.

Муртазасева Р.Х. – т.ф.д., проф.

Мўминов А.Г. – с.ф.д., проф.

Ганиева М.Х. – соц.ф.д., проф.

Мадаева Ш.О. – ф.ф.д., проф.

Тўйчиев Б.Т. – ф.ф.д., проф.

Мухаммедова Д.Г. – псих.ф.д.

Тўхтаев Х.П. – ф.ф.н., доц.

Болтабоев Х. – фил.ф.д., проф.

Рахмонов Н.А. – фил.ф.д., проф.

Жабборов Н.А. – фил.ф.д., проф.

Сидикова И.А. – фил.ф.д., проф.

Ширинова Р.Х. – фил.ф.д., проф.

Садуллаева Н.А. – фил.ф.д., доц.

Арустамян Я.Ю. – фил.ф.д., доц.

Пардаев З.А. – фил.ф.ф.д., PhD.

Масъул котиб: **З. МАЖИД**

ТОШКЕНТ – 2022

МУНДАРИЖА

Тарих

Abduzohirov R. Migratsion jarayonlarga oid qarashlar va yondashuvlarga doir ayrim mulohazalar	4
Абдулхай Г. Description of the socio-economic reforms carried out in turkistan assr in the periodical literatures	7
Алмансов Қ. XIX аср охпир – XX аср бошларыда Самарканд вилояти Жиззах уездининг демографик манзараси ..	11
Боймирзаев С. Ўзбекистон тарихи давлат музейида археология фондининг шаклланниши жараёнлари (1876-1943 йиллар).....	15
Қобулов Э. Бухоро амирлиги маъмурӣ-бошқарув тизимида унвон ва мансаблар.....	19
Маматов Ш., Алмансов Қ. Жиззах воҳаси ахолисининг XIX аср охпир – XX аср бошларыда этник таркибига доир ёзма манбалар.....	23
Топилдинев О. Ўзбекистон республикасида ёшлар билан ишлашининг янгича тизими.....	27
Хатамова Р. Ўзбекистоннинг биринчи ирригатори – Максудхўжаев Сайфиддин	30

Фалсафа. Педагогика. Психология. Методика. Социология. Сиёсий фанлар

Абдирахмонов А. Бакалавр математикларнинг касбий тайёргарликларини шакллантиришнинг методологик асослари	33
Абдулаева М. Ярим ўтказитч материаллардан ишлаб чиқарилган микропропессорли релеларни ўқитишнинг янги усуллари.....	37
Abulov M. Mulohaza va predikat tushunchalari haqida.....	40
Авиловна Х. Ўқиш кўнгикмасини ривожлантиришда аслиятдаги материалларнинг аҳамияти	44
Aliyev I., Razzaqova M. Kurash bilan shug‘ullanuvchi sportchilarda ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlarini rejalashtirish usulublari	48
Алимов С. Ўзбекистонда миграция феноменининг этосферага таъсери муаммолари	51
Алимова Н. Замонавий ўзбек санъатида аёл тимсолининг интикоси ва унинг эстетик хусусиятлари	54
Аллаяров Т. Технократик назарият ва уларнинг моҳияти.....	58
Axmedova M. Biologiyani o‘qitishda o‘quvchilarda masala va mashq yechish ko‘nikmalarini tarkib toptirish yo‘llari ...	61
Axmedova M. Modul tizimida mustaqil o‘qitishning filologik ta’lim imkoniyati	63
Ahadov M., Mardonova Z. Umumiy o‘rtta ta’lim muktablarida kimyo fanidan laboratoriya ishlarini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	67
Азамхонов Б., Бурхонова М., Нематова С. Тарабаларга дастурлаш асосларини ўқитишда “case study” методини кўйлаш	71
Бакиев З., Накибуллаева Ш. Спорт курашида мусобака ва машгулот фаoliyatini бошқариш асослари	74
Бозорова И. Формирование структурно-функциональной модели электронно-образовательных ресурсов	78
Бурхонов Х. Раками жамиятга интернетнинг жамоатчилик фикрига таъсери	82
Jamolova S., Usmonova D. Kompleks o‘zgartuvchilarning chiziqlis ishlab chiqarish funktsiyalari	86
Жўраева Д. Бошланғич синф ўқувчиларида мумтоз адабётни ўқитиш методлари хусусида	88
Захидов Ш., Тураташева С. Олий таълим соҳасида таълим сифатини оширишнинг математик-статистик усуллари.....	91
Ибрагимов Б. Анализ содержания курсов повышения квалификации специалистов по спортивной борьбе	95
Ибрагимова Н. Философия женской правды.....	99
Каримова Н., Элмуродова М. Аҳолини спортга жалб килиш усуллари	103
Кодиров М., Вохидов Э., Сатторов А. Физика таълимни соҳасидаги ислоҳатларнинг натижадорлиги тўғрисида	106
Кушанова М. Психологические факторы подростковой агрессивности в семье	110
Qahramonova X. Imitatsiyalar taqsimotiga asoslangan axborotlarni modellashtirish	114
Мадаминова Д. Миграция муммосини ҳал этиш борасидаги давлат спесати хусусиятлари: Ўзбекистон тажрибаси	117
Мадатов Р. Ривожланниш биологиясини кластер ёндашув асосида ўқитишнинг ўзига хос жиҳатлари	121
Маматкулова Г. Ўзбекистонда ижтимоий химоя тизимининг яратилиши	124
Миркомилов А. Инновационные методы преподавания права	128
Муродов К., Каримов У. Тренажерлар ва машқлардан фойдаланиш асосида эркин курашчиларнинг куч чидамлигини ривожлантириш технологияси	131
Мухамадиев Х. Международное право об образование	135
Набиева Н. Проблемы идеологии в международных отношениях	138
Нортожиев А. Техника олий таълим мусассаларидаги физикадан амалий машгулотларни лойихалаш методи орқали ўтказиш усули	141
Орлова Т. Применение ситуационных задач и задач на соответствие на занятиях по курсу астрономии для студентов педагогических вузов	144
Пулатов Л., Солиев Ф. Совершенствование технико-тактической подготовки тэквондистов на основе анализа соревновательной деятельности	147
Ражабов Х. Ахборот маконида миллий манбафтларни химоя килишининг жаҳон тажрибаси	150
Раззакова Н. Жамиятни модернизация килиш шаронтида оиласвий муносабатларнинг ўзгариш динамикаси	154
Рахматов Э. Алоуддин Аттор Ҳазрат Баҳоуддиннинг айрим маънавий сифатлари ҳақида (“Рисолай Қудсия” асаридаги накъллар мисолида)	159

Рузметов Р., Каримберганов Ф. Методика восстановления организма молодых футболистов в период подготовки.....	162
Сайдалиев И. Бўлажак мухандисларни тайёрлашда саноат корхоналарининг ўрни	166
Sodiqov A., Bazarboev J., Sodiqova S. O'yin ampluasi bo'lgan vaterpolchilarining umumiyl jismoniy tayyorgarligini aniqlash va takomilashtirish.....	170
Sultonov R. Barkamol shaxsni tarbiyalashda maktabgacha ta'lim tashkilotlarda bolalarni jismoniy tarbiyalashning ahamiyati	173
Taniberdiev A. O'quv jarayonida korporativ tarmoq texnologiyalariga asoslangan axborot-metodik ta'minotdan foydalaniш.....	176
Toshkuvatova R. The culture of family life in the philosophical views of Abu Ali ibn Sina.....	180
Toshtemirov D. Raqamlı texnologiyalar asosida elektron ta'lim resurslari yaratish	183
Turanova I. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini Pirils xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash.....	187
Тургуннұлатов Д. Она тили ва адабиёт дарсларини интерфаол методлар орқали ташкил этиши самарадорлиги ..	190
Үлмасхұјаев З. Ижтимоий тармоларнинг шахс сиёсий дүнекарашы шақлланышыга тәссири.....	193
Umarova I. Axborot xurujiga immmunitetni shakkantirishga psixologik yondoshuvlar.....	197
Умурзаков У. Жамият баркарорларини таъминлашда миллий ўзликни англари ва унинг мағкуравий омыллари	201
Уразымбетов А. Формирование национальной идентичности студентов в обществе	205
Хатамова А. Имконияти чекланғанларнинг иктисодий, ижтимоий хуқуқларини амалга ошириш ва химоя килишининг миллий модели.....	208
Хидиров М. Эзотеризм ва экзотеризмнинг умумий алокадорлиги ва фарқи	212
Холбоева Н. Астрономия дарсларида фан янтиликтарни ва компьютер дастурларидан фойдаланишнинг аҳамияти	215
Хўжаев Д. Алишер Навоий бадиий-фалсафији асарларида адолат тушунчилиги тавсифи ва унинг ўзига хос мезонлари	218
Hazratqulov M., Sayfiddinova J. Kichik yoshdagi o'quvchilariga insho yozdirish orqali fikr bildirishga o'rgatish usullari	222
Хамзаев Б. Ёшлар маънавияти ва хуљак-автори ўзгаришида ракобатнинг ўрни	225
Шаропова З. Кишлек хўжалиги олий ўкув юргларида педагогика фанини ўқитиш самарадорлиги профессор-ўқитувчининг индивидуал маҳоратига боғликлиги.....	228

Филология

Авазов Н. Беҳбудийнинг “Туркистон маданий мухторият лойиҳаси”да миллиатнинг маънавий истилоҳатлари талқини	231
Алаутдинова К. Логистика соҳасига оид аббревиатураларнинг ўзига хос жиҳатлари	234
Зулпукаров К., Тавалдиева Г. О соотношении морфем и их алломорфов в родственных языках	237
Курбонов О. Ўзбек медиа маконида телеконтентларга тифлошарҳ.....	241
Marupova A. Lexical means of creating an image a character in fiction	244
Рахимова Г. Символика цветообозначений во французском, русском и узбекском языках	247
Rahmonova X. Xurshid Do'stmuhhammadning badiiy obraz yaratish mahorati	251
Ruzibaeva N. The study of pragmatics as a linguistic science: problems of definition and classification.....	254
Ro'ziboyeva P. Abdulhamid Cho'lpox hikoyalardara ayollar obrazi talqini	257
Turnanov S. Experiences on local self-government bodies in countries around the world	260
Умурзаков Р. Бола образи назарий муаммо сифатида	264
Хамраев Н. Телевидение – таълим-тарбия омили сифатида	267
Egamberdiyeva M. Main components of speech etiquette in intercultural communication.....	270
Eshonqulov H., Hamidov A. Alisher Navoiy g'azaliyotida muallif tahriri: shakl va mazmun mukammallahuvi.....	273
Юлдашева О. Категория «образ» в литературоведении и искусстве	277



Xurshida RAHMONOVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti katta o'qituvchisi, PhD
E-mail: urshida.xalilovna@gmail.com

Fil.f.d. U.Rasulova taqrizi asosida

KHURSHID DOSTMUHAMMAD'S PROFICIENCY TO CREATE AN ARTISTIC IMAGE

Annotation

One of the most important issues in literary criticism has always been to understand and explain the art of prose and the essence of its images. The article examines the scientific and theoretical views of Uzbek literary scholars on the art of prose, in particular, on the issues of image and imagery, and analyzes the stories and narratives of the writer Khurshid Dostmuhammad. The nature of the images in the author's works, the essence of individual metaphors, the writer's unique style of deepening the psyche of the protagonist were studied. The illumination of meaning through symbols in the author's works is also analyzed on the basis of examples.

Key words: Nature of images, traditional and individual metaphors, symbols, artistic generalizations, image of contemporary man and historical figure, national and universal values, historical environment, psychological image

МАСТЕРСТВО СОЗДАНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОБРАЗОВ ХУРШИДА ДУСТМУХАММАДА

Аннотация

Понимание и объяснение искусства прозы и сущности ее образов всегда было важной задачей литературоведения. В статье рассматриваются научно-теоретические взгляды узбекских литераторов на искусство прозы, в частности, на вопросы образа и образности, анализируются рассказы и повести писателя Хуршида Достмухаммада. Изучены характер образов в произведениях автора, сущность отдельных метафор, неповторимый писательский стиль углубления психики главного героя. Освещение смысла через символы в произведениях автора также анализируется на основе примеров.

Ключевые слова: Характер образов, традиционные и индивидуальные метафоры, символы, художественные обобщения, образ современного человека и исторического деятеля, национальные и общечеловеческие ценности, историческая среда, психологический образ.

XURSHID DO'STMUHAMMADNING BADIY OBRAZ YARATISH MAHORATI

Annotatsiya

Adabiyotshunoslikda nasriy asarlar badiiyatini, undagi obrazlar mohiyatini anglab yetish, tushuntirish hamisha muhim masalalardan biri bo'lib kelgan. Maqolada o'zbek adabiyotshunos olimlarning nasriy asarlar badiiyatiga, xususan, obraz va tasvir masalalariga doir ilmiy-nazariy qarashlari o'rganilib, adib Xurshid Do'stmuhammad hikoya va qissalarini misolida tahlil qilindi. Adib asarlaridagi obrazlar tabiat, individual metaforalarning mohiyati, qahramon ruhiyatini chuqur yoritib berishdagi adibning o'ziga xos uslubi tadqiq etildi. Shuningdek, adib asarlaridagi ramzlar orgali ma'no-mohiyatning yoritilishi misollar asosida tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Obrazlar tabiat, an'anaviy va individual metaforalar, ramzlar, badiiy umumlashma, zamondosh inson hamda tarixiy shaxs obrazi, milliy va umumbasharliy qadriyatlar, tarixiy muhit, psixologik tasvir.

Kirish. O'zbek adabiyotshunosligida badiiyatiga doir nazariy qaydlar uzoq tarixga borib tutashdi. Badiiy-estetik tafakkurning taraqqiyot tamoyillari hozirgi adabiy jarayonning tarkibiy va ajralmas bir bo'lagi sifatida o'rGANIMOQDA. Badiiy tafakkur hamisha o'zgarib, yangilanib turadi. Negaki, badiiy tafakkur – muayyan bir davrdagi milliy adabiyot holatini, muayyan manzarasini, yangiliklari, kamchiliklari o'z ichiga oladi. Bu – uning tabiatidagi ustuvor xususiyat. Biron badiiy asarning tasvir nozikligini, badiiy o'ziga xosligini, obrazlar tizimini to'g'ri tushummoq, tili go'zalligini his etmoq uchun shu asar yaratilgan davr badiiy tafakkuriga xos xususiyatlarni bilish kerak. Chunki chinakam badiiy hodisa davr ruhini ifodalash bilan bir qatorda o'zi yaratilgan vaqtidan uzoqroq yashaydi va zamonga nisbatan turg'unroq bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Dunyo adabiyotshunosligida nasriy asarlar badiiyati muammolariga o'ziga xos adabiy-estetik hodisa sifatida yondashish, ijodkor badiiy mahoratini ochib berish, yozuvchi qissa va hikoyalardagi obraz hamda uning ma'naviy-ruhiy olami mohiyatini teran anglab yetish, qahramon ruhiyatini kengroq tasvirlash usulini, yozuvchi g'oyasini anglab yetish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotshunoslikda badiiy obraz yaratish masalasi muayyan darajada o'rganilgan. Jumladan, Arastu, V.F.Gegels, V.G.Belinskiy, A.A.Potebnya, M.Baxtin, Yu.Borev, V.Xalizev, A.B.Esin, L.I.Timofeyev, N.D.Tamarchenko[1] kabi olimlarning ilmiy maqola va tadqiqotlarda masalaning nazariy jihatni yoritilgan. O'zbek adabiyotshunosligida ham I.Sulton, M.Qo'shjonov, B.Sarimsoqov, T.Boboyev, E.Xudoyberdiyev, U.Normatov, A.Rasulov, Q.Yo'ldoshev, S.Meliyev, A.Ulug'ov, D.Quronov, B.Karimov, U.Jo'raqulov[2] va boshqa adabiyotshunoslarning monografiya, ilmiy adabiyotlarda hikoya va qissalarini, xususan, badiiy obraz, tasvir vositalariga doir ilmiy-nazariy qarashlar o'z ifodasini topgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Adabiyotshunoslikda nasriy asarlar poetikasi, badiiy obrazga doir nazariy qarashlar o'rganilib, Xurshid Do'stmuhammad hikoya va qissalarini asosida tarixiy va badiiy obrazlar tabiat, badiiy matndagi tasvir usullarining o'ziga xosligi ochib berilgan. Istiqlol davri adabiyotida janrlar takomilidagi o'zgarishlar, poetik tasvirning o'ziga xosligi Xurshid Do'stmuhammad asarları, undagi obrazlar tabiat, milliy va umumbasharliy qadriyatlarining uyg'unlikda ifodalaniishi, tarixiy shaxs obrazi va zamondosh



Xurshida RAHMONOVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti katta o'qituvchisi, PhD
E-mail: urshida.xalilovna@gmail.com

Fil.f.d. U.Rasulova taqrizi asosida

KHURSHID DOSTMUHAMMAD'S PROFICIENCY TO CREATE AN ARTISTIC IMAGE

Annotation

One of the most important issues in literary criticism has always been to understand and explain the art of prose and the essence of its images. The article examines the scientific and theoretical views of Uzbek literary scholars on the art of prose, in particular, on the issues of image and imagery, and analyzes the stories and narratives of the writer Khurshid Dostmuhammad. The nature of the images in the author's works, the essence of individual metaphors, the writer's unique style of deepening the psyche of the protagonist were studied. The illumination of meaning through symbols in the author's works is also analyzed on the basis of examples.

Key words: Nature of images, traditional and individual metaphors, symbols, artistic generalizations, image of contemporary man and historical figure, national and universal values, historical environment, psychological image

МАСТЕРСТВО СОЗДАНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОБРАЗОВ ХУРШИДА ДУСТМУХАММАДА

Аннотация

Понимание и объяснение искусства прозы и сущности ее образов всегда было важной задачей литературоведения. В статье рассматриваются научно-теоретические взгляды узбекских литераторов на искусство прозы, в частности, на вопросы образа и образности, анализируются рассказы и повести писателя Хуршида Достмухаммада. Изучены характер образов в произведениях автора, сущность отдельных метафор, неповторимый писательский стиль углубления психики главного героя. Освещение смысла через символы в произведениях автора также анализируется на основе примеров.

Ключевые слова: Характер образов, традиционные и индивидуальные метафоры, символы, художественные обобщения, образ современного человека и исторического деятеля, национальные и общечеловеческие ценности, историческая среда, психологический образ.

XURSHID DO'STMUHAMMADNING BADIY OBRAZ YARATISH MAHORATI

Annotatsiya

Adabiyotshunoslikda nasriy asarlar badiiyatini, undagi obrazlar mohiyatini anglab yetish, tushuntirish hamisha muhim masalalardan biri bo'lib kelgan. Maqolada o'zbek adabiyotshunos olimlarning nasriy asarlar badiiyatiga, xususan, obraz va tasvir masalalariga doir ilmiy-nazariy qarashlari o'rganilib, adib Xurshid Do'stmuhammad hikoya va qissalarini misolida tahlil qilindi. Adib asarlaridagi obrazlar tabiat, individual metaforalarning mohiyati, qahramon ruhiyatini chuqur yoritib berishdagi adibning o'ziga xos uslubi tadqiq etildi. Shuningdek, adib asarlaridagi ramzlar orgali ma'no-mohiyatning yoritilishi misollar asosida tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Obrazlar tabiat, an'anaviy va individual metaforalar, ramzlar, badiiy umumlashma, zamondosh inson hamda tarixiy shaxs obrazi, milliy va umumbasharliy qadriyatlar, tarixiy muhit, psixologik tasvir.

Kirish. O'zbek adabiyotshunosligida badiiyatiga doir nazariy qaydlar uzoq tarixga borib tutashdi. Badiiy-estetik tafakkurning taraqqiyot tamoyillari hozirgi adabiy jarayonning tarkibiy va ajralmas bir bo'lagi sifatida o'rGANIMOQDA. Badiiy tafakkur hamisha o'zgarib, yangilanib turadi. Negaki, badiiy tafakkur – muayyan bir davrdagi milliy adabiyot holatini, muayyan manzarasini, yangiliklari, kamchiliklari o'z ichiga oladi. Bu – uning tabiatidagi ustuvor xususiyat. Biron badiiy asarning tasvir nozikligini, badiiy o'ziga xosligini, obrazlar tizimini to'g'ri tushummoq, tili go'zalligini his etmoq uchun shu asar yaratilgan davr badiiy tafakkuriga xos xususiyatlarni bilish kerak. Chunki chinakam badiiy hodisa davr ruhini ifodalash bilan bir qatorda o'zi yaratilgan vaqtidan uzoqroq yashaydi va zamonga nisbatan turg'unroq bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Dunyo adabiyotshunosligida nasriy asarlar badiiyati muammolariga o'ziga xos adabiy-estetik hodisa sifatida yondashish, ijodkor badiiy mahoratini ochib berish, yozuvchi qissa va hikoyalardagi obraz hamda uning ma'naviy-ruhiy olami mohiyatini teran anglab yetish, qahramon ruhiyatini kengroq tasvirlash usulini, yozuvchi g'oyasini anglab yetish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotshunoslikda badiiy obraz yaratish masalasi muayyan darajada o'rganilgan. Jumladan, Arastu, V.F.Gegels, V.G.Belinskiy, A.A.Potebnya, M.Baxtin, Yu.Borev, V.Xalizev, A.B.Esin, L.I.Timofeyev, N.D.Tamarchenko[1] kabi olimlarning ilmiy maqola va tadqiqotlarda masalaning nazariy jihatni yoritilgan. O'zbek adabiyotshunosligida ham I.Sulton, M.Qo'shjonov, B.Sarimsoqov, T.Boboyev, E.Xudoyberdiyev, U.Normatov, A.Rasulov, Q.Yo'ldoshev, S.Meliyev, A.Ulug'ov, D.Quronov, B.Karimov, U.Jo'raqulov[2] va boshqa adabiyotshunoslarning monografiya, ilmiy adabiyotlarda hikoya va qissalarini, xususan, badiiy obraz, tasvir vositalariga doir ilmiy-nazariy qarashlar o'z ifodasini topgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Adabiyotshunoslikda nasriy asarlar poetikasi, badiiy obrazga doir nazariy qarashlar o'rganilib, Xurshid Do'stmuhammad hikoya va qissalarini asosida tarixiy va badiiy obrazlar tabiat, badiiy matndagi tasvir usullarining o'ziga xosligi ochib berilgan. Istiqlol davri adabiyotida janrlar takomilidagi o'zgarishlar, poetik tasvirning o'ziga xosligi Xurshid Do'stmuhammad asarları, undagi obrazlar tabiat, milliy va umumbasharliy qadriyatlarining uyg'unlikda ifodalaniishi, tarixiy shaxs obrazi va zamondosh



Xurshida RAHMONOVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti katta o'qituvchisi, PhD
E-mail: urshida.xalilovna@gmail.com

Fil.f.d. U.Rasulova taqrizi asosida

KHURSHID DOSTMUHAMMAD'S PROFICIENCY TO CREATE AN ARTISTIC IMAGE

Annotation

One of the most important issues in literary criticism has always been to understand and explain the art of prose and the essence of its images. The article examines the scientific and theoretical views of Uzbek literary scholars on the art of prose, in particular, on the issues of image and imagery, and analyzes the stories and narratives of the writer Khurshid Dostmuhammad. The nature of the images in the author's works, the essence of individual metaphors, the writer's unique style of deepening the psyche of the protagonist were studied. The illumination of meaning through symbols in the author's works is also analyzed on the basis of examples.

Key words: Nature of images, traditional and individual metaphors, symbols, artistic generalizations, image of contemporary man and historical figure, national and universal values, historical environment, psychological image

МАСТЕРСТВО СОЗДАНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОБРАЗОВ ХУРШИДА ДУСТМУХАММАДА

Аннотация

Понимание и объяснение искусства прозы и сущности ее образов всегда было важной задачей литературоведения. В статье рассматриваются научно-теоретические взгляды узбекских литераторов на искусство прозы, в частности, на вопросы образа и образности, анализируются рассказы и повести писателя Хуршида Достмухаммада. Изучены характер образов в произведениях автора, сущность отдельных метафор, неповторимый писательский стиль углубления психики главного героя. Освещение смысла через символы в произведениях автора также анализируется на основе примеров.

Ключевые слова: Характер образов, традиционные и индивидуальные метафоры, символы, художественные обобщения, образ современного человека и исторического деятеля, национальные и общечеловеческие ценности, историческая среда, психологический образ.

XURSHID DO'STMUHAMMADNING BADIY OBRAZ YARATISH MAHORATI

Annotatsiya

Adabiyotshunoslikda nasriy asarlar badiiyatini, undagi obrazlar mohiyatini anglab yetish, tushuntirish hamisha muhim masalalardan biri bo'lib kelgan. Maqolada o'zbek adabiyotshunos olimlarning nasriy asarlar badiiyatiga, xususan, obraz va tasvir masalalariga doir ilmiy-nazariy qarashlari o'rganilib, adib Xurshid Do'stmuhammad hikoya va qissalarini misolida tahlil qilindi. Adib asarlaridagi obrazlar tabiat, individual metaforalarning mohiyati, qahramon ruhiyatini chuqur yoritib berishdagi adibning o'ziga xos uslubi tadqiq etildi. Shuningdek, adib asarlaridagi ramzlar orgali ma'no-mohiyatning yoritilishi misollar asosida tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Obrazlar tabiat, an'anaviy va individual metaforalar, ramzlar, badiiy umumlashma, zamondosh inson hamda tarixiy shaxs obrazi, milliy va umumbasharliy qadriyatlar, tarixiy muhit, psixologik tasvir.

Kirish. O'zbek adabiyotshunosligida badiiyatiga doir nazariy qaydlar uzoq tarixga borib tutashdi. Badiiy-estetik tafakkurning taraqqiyot tamoyillari hozirgi adabiy jarayonning tarkibiy va ajralmas bir bo'lagi sifatida o'rGANIMOQDA. Badiiy tafakkur hamisha o'zgarib, yangilanib turadi. Negaki, badiiy tafakkur – muayyan bir davrdagi milliy adabiyot holatini, muayyan manzarasini, yangiliklari, kamchiliklari o'z ichiga oladi. Bu – uning tabiatidagi ustuvor xususiyat. Biron badiiy asarning tasvir nozikligini, badiiy o'ziga xosligini, obrazlar tizimini to'g'ri tushummoq, tili go'zalligini his etmoq uchun shu asar yaratilgan davr badiiy tafakkuriga xos xususiyatlarni bilish kerak. Chunki chinakam badiiy hodisa davr ruhini ifodalash bilan bir qatorda o'zi yaratilgan vaqtidan uzoqroq yashaydi va zamonga nisbatan turg'unroq bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Dunyo adabiyotshunosligida nasriy asarlar badiiyati muammolariga o'ziga xos adabiy-estetik hodisa sifatida yondashish, ijodkor badiiy mahoratini ochib berish, yozuvchi qissa va hikoyalardagi obraz hamda uning ma'naviy-ruhiy olami mohiyatini teran anglab yetish, qahramon ruhiyatini kengroq tasvirlash usulini, yozuvchi g'oyasini anglab yetish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotshunoslikda badiiy obraz yaratish masalasi muayyan darajada o'rganilgan. Jumladan, Arastu, V.F.Gegels, V.G.Belinskiy, A.A.Potebnya, M.Baxtin, Yu.Borev, V.Xalizev, A.B.Esin, L.I.Timofeyev, N.D.Tamarchenko[1] kabi olimlarning ilmiy maqola va tadqiqotlarda masalaning nazariy jihatni yoritilgan. O'zbek adabiyotshunosligida ham I.Sulton, M.Qo'shjonov, B.Sarimsoqov, T.Boboyev, E.Xudoyberdiyev, U.Normatov, A.Rasulov, Q.Yo'ldoshev, S.Meliyev, A.Ulug'ov, D.Quronov, B.Karimov, U.Jo'raqulov[2] va boshqa adabiyotshunoslarning monografiya, ilmiy adabiyotlarda hikoya va qissalarini, xususan, badiiy obraz, tasvir vositalariga doir ilmiy-nazariy qarashlar o'z ifodasini topgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Adabiyotshunoslikda nasriy asarlar poetikasi, badiiy obrazga doir nazariy qarashlar o'rganilib, Xurshid Do'stmuhammad hikoya va qissalarini asosida tarixiy va badiiy obrazlar tabiat, badiiy matndagi tasvir usullarining o'ziga xosligi ochib berilgan. Istiqlol davri adabiyotida janrlar takomilidagi o'zgarishlar, poetik tasvirning o'ziga xosligi Xurshid Do'stmuhammad asarları, undagi obrazlar tabiat, milliy va umumbasharliy qadriyatlarining uyg'unlikda ifodalaniishi, tarixiy shaxs obrazi va zamondosh

inson qiyofasining badiiy asarda ifodasi, ramzlar zamiriga singdirilgan ma'no qatlamlari, psixologik tasvir vositalarining badiiy matnda aks etishi hamda yozuvchi uslubining o'zbek adabiyoti rivojidagi munosib o'mni va ahamiyatini ushbu maqolada yoritib berishga harakat qildik. Adib hikoyalarini tahlil qilishda undagi g'oyani yoritishda germenevтиk, psixologik, tasniflash kabi usullaridan foydalаниди.

Tahlil va natijalar. Ma'lumki, san'at va adabiyotda hayot obrazlar vositasida aks ettirilar ekan, badiiy adabiyot obrazli fikrlash natijasida dunyoga keladi. Adabiyotshunos B.Sarimsoqov obrazga shunday ta'rif beradi: "San'atda voqelik ijodkorning estetik qarashlari, prinsiplari va ideali orqali ijodiy idrokidan o'tganligi, binobarin, o'zgartirilganligi sababli unga nisbatan "badiiy" aniqlovchisini qo'shib ishlatalamiz. Bevosita mana shu xususiyati tufayli san'at asari, ulardag'i badiiy obrazlar inson his-tuyg'ularini tarbiyalaydi, uning aql-idrokini takomillashtiradi. Demak, san'atdagi obraz va obrazlilikning asosini ijodkorning voqelikni hissiy-aqliy idrok etishi, qayta ijodiy gavdalantirishi tashkil etadi"[3]. Insondag'i muayyan his-tuyg'unii, holat va harakatini, o'y va kechinmanini o'zgalar qalbiga, shuuriga ta'sir etadigan darajada ifodalashma so'zning o'mi beqiyosdir. So'zlardan qay darajada foydalanim badiiy obraz yaratish yozuvchining mahoratiga bog'liq.

"Badiiy obraz borliqning (undagi narsa, hodisa va h.k) badiiy asardagi aksi... Badiiy obrazning xususiyatlari haqidagi so'z ketganda, birinchini galda, uning individuallashtirilgan umumlashma sifatida namoyon bo'lishi xususida to'xtalish zarur. Ma'lumki, voqelikdagi har bir narsa-hodisada turga xos umumiy xususiyatlar bilan birga uning o'zigagina xos xususiyatlar mujassamdir"[4], - deb yozadi taniqli adabiyotshunos D.Quronov. Badiiy asarda ifodalangan badiiy obraz umumlashma natijasigina bo'lmay, ayni chog'da, konkretlashtirish, individuallashtirish mahsuli hamdir. "Shu ma'noda konkretlik" – badiiy obrazning spesifik xususiyatlaridan biri sanaladi"[5]. Chunki yozuvchi badiiy obrazda individual xususiyatlarini namoyon qilishi orqali uni konkretlashtiradi, obrazga jonlilik, haqqoniylilik, tabiiylik baxsh etadi. O'quvchi hissiyotiga ta'sir qiladi, uni ishonchiradi. Adibning "Shabada" hikoyasidagi Komron obrazi o'zida katta badiiy umumlashmani tashiydi, ya'ni globallashayotgan zamonda ma'naviy inqirozga uchrayotgan zamondosh inson qiyofasini gavdalantiridi va shu bilan birga o'quvchi ko'z o'ngida alohida bi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Yozuvchi umumlashmaga individual xususiyatlarni bo'rttirish orqali erishadi. Masalan, muallif Komron nutqida: "ar-r... arsh dedimi – Komron ichida kulib qo'ydi – koinotning chang to'zoni chiqib ketarmishmi-ye!" Buyog'idan uyog'i yaqinlashib to'shakka qadalib yotgan... boboy-momoyerlar o'ylab topgan safsatalar..."[6], "Dunyo juda keng, odamlar ham, orzu-havaslar ham xilma-xil. Siz jon kuydirib aytayotgan nasihatlariningizni hozir dunyoning hech yerida ota-onalar farzandlariga aytishmaydi"[7], "onam bilan qoni bir odamda, ikki dunyoda ham tushummaydi"[8] kabi gaplari, fikrlari orqali individual belgilarni ifodalaydi. Ayni shu o'ziga xos belgilarning ifodalaniши hisobiga obraz badiiy umumlashmalikka erishgan. Hikoyada adib butun dunyo jamiyatidagi illatlarini, globallashuvning inson ongu tafakkuriga ta'siri, oiladek muqaddas ne'matlarga befarqlik, e'tiqodsizlik, ma'naviy qashshoqlik natijasida kelib chiqadigan oqibatlar haqida qayg'uradi.

Adib nasrinin o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri bu tasvirda voqealarning obrazlarning ma'lum bir tomonini sir saqlashdir. Obrazlarning turfa olami, qahramon psixologiyasida ro'y berayotgan ma'lum o'zgarishlar voqealar rivoji davomida retrospektiv syujet asosida kitobxonga yetkazib beriladi. "Beozor qushning faryodi", "Shabada", "Jodi" hikoyalari va "Katta ko'cha", "Kuza..." qissalari ana shunday syujet asosiga qurilgan asarlardan sanaladi.

Obraz mohiyatiga ko'ra harakatdagi voqefikdan iborat. Real borliqdagi, inson xarakteri, ruhiyatidagi turli-tuman o'zgarishlar va kechinmalarni ijodkor o'z ongi, dunyoqarashi, estetik ideali, g'oyaviy maqsadi orqali sintez qilish oqibatida badiiy obraz shakllanadi. Shu sababli ijodkor yaratgan har bir yangi obraz yangi bir kashfiyotdir. Bunday obrazlar inson ma'naviy dunyosini boyitadi, tafakkur doirasini kengaytiradi, ruhiyatini kirlardan tozalaydi. Bunday obrazni yaratish uchun, birinchidan, voqelik materialida ob'ektiv asos, soddarоq qilib aytganda, xamirturish kerak. Ikkinchidan, tanlangan hayotiy materialni qanday tasvirlash yoki ifodalash ijodkorning xohish va maqsadi, iqtidori va mahoratiga bog'liq holda kechadi.

Badiiy obraz tabiatining muhim jihatlaridan biri uning metaforikligidir. Adabiyotshunos B.Sarimsoqov bu haqida shunday yozadi: "Badiiy ko'chimlar ichida metafora (istiora) juda katta o'rinn engallaydi... So'zning istioraviy ko'chimiga asoslangan badiiy tasvir va ifodasi o'ta darajada favquloddalik kasb etadi. Natijada, vujudga kelgan obrazning ta'sirehanligi yuksak bo'ladi"[9]. Yana bir taniqli adabiyotshunos D.Quronov esa: "metaforlik" degandagi badiiy obrazning bir narsa mohiyatini boshqa bir narsa orqali ochishga intilishi, san'atga xos fikrlash yo'sini tushuniлади"[10], – deb ta'rif beradi. Yozuvchi voqelikdagi narsa-hodisaning hammaga ko'rimb turgan tashqi o'xshashligiga emas, balki odamlar nazaridan yashirin ichki o'xshashligiga tayangan holda fikrlaydi. Masalan, Cho'lpion go'zal obrazi va inson erkinozodligi, Abdulla Qahhor xalqni aldayotgan Amin, pristav obrazlari bilan o'g'rilari, Abdulla Oripov tilla baliqcha bilan o'z qobig'iga o'ralib yashayotgan odamlar, Said Ahmad ongsiz yirtqich hayvon bo'ri bilan o'z yurtidani, elidan, ilyomon e'tiqodidan mosuvu bo'lgan Bo'rivoy obrazi o'tasida o'xshashliklar topadi. O'z navbatida Xurshid Do'stmuhammad ham "Jajman" hikoyasida bozorga kirib, moslashib hamma ozuqani yeli bitirayotgan to'royogli g'alati maxluq bilan insonsoнin bitmas-tuganmas orzu-havaslarini, nafsi, "So'roq" qissasidagi "uchar likopcha"da kelgan o'zga sayyoraklilar bilan insomni so'roq qiluvchi vijdon o'tasidagi o'xshashlikni topishi – metaforik fikrlash natijasidir. Bundan kelib chiqadiki, obrazni metaforik, ya'ni mazmunni yashirin asosida tasvirlash kitobxonni asarning mazmun-mohiyatini anglab yetish uchun bir oz aqlini charxlashiga, asar haqida mantiqiy fikrlashga undaydi. Adabiyotshunos B.Sarimsoqov metaforalarini yaratish tarziga ko'ra ikkiga ajratadi. "1.An'anaviy metaforalar 2.Individual metaforalar.

An'anaviy metaforalar allaqachonlar yaratilib, til mulkiga aylangan va ijodkorlar ularga tez-tez murojaat qilib turadilar... Individual metaforalar esa u yoki bu ijodkor tomonidan ilk bor yaratilib, uning ko'chma ma'nosini ham ko'pehlikku u qadar ma'lum bo'lmaydi"[11]. Demak, individual metaforalarda ijodkorning tafakkuri, voqelikka bo'lgan munosabati, hislari, estetik ideali mujassamlashgan bo'ladi. Shuningdek, muayyan badiiy asar g'oyasini, mazmunini baholash ana shu individual metaforik obrazlar mohiyatini, ularda jamlangan hissiy quvvatini to'g'ri anglash orqali amalga oshadi. Adib Xurshid Do'stmuhammad ijodida individual metaforik obrazlarni uechratish mumkin. Muallifning "Jajman" hikoyasida jajman, "Qoyalardan balandda" asarida burgt, "Saf" hikoyasida uzun saf, qator, "Qichqiriq"da suv, "Shabada" hikoyasidagi olov, "Panoh" qissasida ona o'rrik daraxti. "Katta ko'cha"da oromkursi obrazlari fikrimizning dalilidir. Individual metaforalar ijodkor tasavvuri, xayoli, estetik bahosi, tafakkur doirasini, dunyoqarashi bilan aloqadorlikda o'zga ma'noga ko'chirilgan so'z emas, balki ma'lum jihatlardan ko'chma ma'no kasb etgan metaforik obrazlardir. Asarning badiyilagini ta'minlashda an'anaviy metaforalar bilan bir qatorda individual tarzda yaratilgan metaforalar ham faol ishtirot etadi. Individual metaforalar ko'chim darajasi, hissiy chuqurligi, favqulodda obrazliliqi, betakrorligi bilan alohida

ajralib turadi. Istioraning bu turi ijodkor uchun yuksak falsafiy-estetik xulosalar qilishga ko'plab imkon beradi.

Xurshid Do'stmuhammad ijodining dastlabki bosqichdagi asarlarida, xususan, "Saf", "Etakdag'i uy", "Vasiy", "Mahzuna", "Jajman", "Qazo bo'lgan namoz", "Beozor qushning faryodi" hikoyalarda milliylik, milliy qadriyatlar, urf-odatlarning ulug'lanishi, sof o'zbekona ruhning yetakchilik qilganligi kuzatilsa, keyingi boqichdagi asarlarida, jumladan, "Shabada", "Jim o'tirgan odam", "Muhtaram, jallod janoblari" hikoyalari, "Kuza...", "Katta ko'cha", "Hijronim - mingdir mening", "Men - sensiz, sen - mensiz", "Yolg'iz" qissalarida inson, uning tuyg'ulari, orzulari, xayollari, fikrlari, tafakkuri, boringki, insonning o'zi bosh qadriyat darajaiga ko'tarildi. Bu tipdag'i asarlarida adib inson tuyg'ularining kuzatuvchisi, ko'ngil tebranishlarini, kayfiyat va uning natijasida kelib chiquvchi fikrlarni tekshiruvchi, ruhiyat qatlamlarini tadqiq etuvchi, bir so'z bilan aytganda, insonni murakkab rakurslarda tasvirlovchi ijodkorga aylandi.

Adib Xurshid Do'stmuhammad o'z asarlarida obraz yaratara ekan, ularning ma'naviy saviyasiga, milliy va umumbashariy ruhning ifodalanishiga alohida e'tibor qaratadi. Uning ko'pgina asarlarida o'zbek xalqiga xos fazilatu kamchiliklarni bor-bo yicha aks etgan. O'zbek adapbiyotimiz va jahon adapbiyoti sirlaridan voqif bo'lgan Xurshid Do'stmuhammad zamondosh obrazini yaratishda ham, tarixiy shaxs obrazini yaratishda ham umumbashariy va milliy qadriyatlar talabidan kelib chiqadi. "O'zgarayotgan vogelikdan badiiy umumlashma yasashda hikoyaning imkoniyati katta. Lekin badiiylik sharti shundaki, hikoya nechog'li bugunbop janr ekanligidan qat'i nazar unda bugunning qadriyatlar, bugunning muhim gapi abadiy va o'zgarmas qadriyatlar qiyofasida ifoda topmog'i kerak. Hikoya dolzarb (o'tkinchi desak ham yanglismaymiz) va

mangu qadriyatlar orasida dunyoga keladi. Hikoyaning bugungi kun ko'rinishi nisbatan oson, biroq uning mag'ziga singdirilgan mangu qadriyatlarning ifodasi asarning umumbashariy va umumboqyligini ta'minlaydi. Dolzarb qadriyatlar soyasida qoldirilib abadiy qadriyatlar kamsitilgan joyda badiiy tafakkur soxtalashadi, rivojdan qoladi" [12]. – deb yozadi Xurshid Do'stmuhammad. Adib yozgan fikrlar tatbig'ining hikoyalardagi obrazlar misolida ko'rishimiz mumkin. "Qazo bo'lgan namoz" hikoyasida Mirkomilboy xarakterida ham milliy, ham umumbashariy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan vatanparvar shaxs obrazini, "To'xtaboyning boyliklari" hikoyasida imon-e'tiqodga sobit inson qiyofasini, "Mahzuna"da sharqona ibo-hayo fazilatlariga egg ayol timsolini, "Vasiy"dagi yigit xarakterida sof milliy ruh bilan yo'g'rilgan g'amxo'ruka obrazini uchratamiz. Yigitdag'i mardlik, opasiga mas'ullik, tug'ishgan birodarini har qanday injiqqliklariga sabr qilish hissi faqat o'zbek farzandlariga xos ekanligini ko'rsatib bergen. Umuminsoniylik va milliylik ma'lum muhitda tanlangan obrazlar qiyofasida, ularning ichki olami tasvirida ko'zga tashlanadi.

Xulosa. So'ngi yillarda badiiy tafakkur jarayonidagi tasvir usullari orasida yangi-yangilari paydo bo'ldi, ular yordamida insonni turlicha tadqiq etish imkoniyatlarini orta bordi. O'mi kelganda, muallif dunyoviy tashvishlardan inson botiniy tuyg'ulari, qalbini tasvirlashni ustun qo'yaboshladи. Bunday yangicha uslublardan foydalananish, insonning injaytuyg'ularini tasvirlash Xurshid Do'stmuhammad yaratgan hikoya va qissalarida ham bo'y ko'rsatgan. Adib o'z asarida qahramonlar ruhiyatini, badiiy asar g'oyasini muayyan bir ramziy obrazlar vositasida yoritib bergen.

Yuqoridaq mazkur qisqacha qaydlar hozirgi zamon adapbiyotshunosligida nasrdagi badiiyat masalalarini yoritishda xizmat qiladi, deb o'yaylimiz.

ADABIYOTLAR

- Арасту. Поэтика. Ахлоки кабир. Риторика. – Т.: Янги аср авлоди, 2011; Гегель В.Ф. Эстетика. Санъат ва бадиий ижод фалсафаси. – Тошкент, 2012; Белинский В.Г. Собр. соч. В девяти томах. Т.2. – М.: Худ. лит-ра, 1977; Белинский. В.Г. Адабий орзулар. Т.: Faafur Fulom, 1977; Потебня А.А. Теоретическая поэтика. – М.: Высшая школа, 1990; Бахтиян М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – М.: Худ. Лит-ра, 1972; Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. – М.: Просвещение, 1971; Тамарченко Н.Д. Теория литературы. – М.: Академа, 2004; Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы. – М.: Просвещение, 1988.
- Кўшжонов М. Таnlangan asarlari. – Т.: Шарқ, 2018; Саримсоков Б.И. Бадиийлик асослари ва мезонлари – Т.: Фан, 2004; Бобеев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2002; Худойбердиев Э. Адабиётшунослика кириши. – Т.: Шарқ, 2008; Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Т.: Шарқ, 2007; Йўлдошев К. Ёник сўз. – Т.: Янги аср авлоди, 2006.; Мелиев С. Сўзу сўз. – Т.: Шарқ, 2020; Курунов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Т.: Академнашр, 2018; Каримов Б. Рухият алтифоси. – Т.: Faafur Fulom, 2018; Жўракулов У. Кодирний ва роман тафаккури. – Т.: Нурафшон бусинесс, 2020; Расулова У. XX аср ўзбек киссачилиги. – Т.: Камар медиа, 2020.
- Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – T.: Fan, 2004. – B. 5.
- Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: Abdulla Qodiriy, 2004. – B 63-64.
- O'sha manba. – B. 64.
- Do'stmuhammad X. Qichqiriq. – T.: Sharq, 2014. – B. 27.
- O'sha manba. – B. 28.
- O'sha manba. – B. 18.
- Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – T.: Fan, 2004. – B. 43.
- Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: Abdulla Qodiriy, 2004 – B. 66.
- Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – T.: Fan, 2004. – B. 49.
- Do'stmuhammad X. Hozirgi o'zbek hikoyalarda badiiy tafakkurning yangilanishi. Fil.fan.nomz. ...diss. T.: 1995. – B.15.